

Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom

“Milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom) Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ayollar holati bo‘yicha to‘rtinchi Butunjahon konferensiyasida tasdiqlangan Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasi, Minimal gender ko‘rsatkichlari to‘plami kabi xalqaro tavsiyalar va standartlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4235-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021- yil 28- maydagi “2030- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” SQ-297-IV-son qarori (Oliy Majlis Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-sonli qarori tahririda) ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan gender statistikasi ko‘rsatkichlari tizimini tashkil etuvchi axborotlarni shakllantirish va hisoblash tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model) talablari asosida ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizom milliy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish, hisoblash, integratsiyalash, tasniflash, tekshirish, umumlashtirish, tahlil qilish, e‘lon qilish va qayta ko‘rib chiqishning yagona uslubiy talablarini belgilaydi. Gender statistikasi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish jarayonlari statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqishning xalqaro modellari, statistika dasturlari va rasmiy statistika sohasidagi uslubiy hujjatlar talablari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

2. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta‘riflaridan foydalaniladi:

gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati;

gender statistikasi – statistikaning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

gender tengligi – erkaklar va ayollarning ijtimoiy nuqtai nazardan tengligi, teng huquq va majburiyatlarga, shuningdek, ulardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar (resurslar va imkoniyatlardan teng foydalanish)ga ega bo'lishi;

gender statistikasi ko'rsatkichi – xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat hayoti va faoliyatining muayyan sohasidagi holati, imkoniyatlari va mavjud farqlarni miqdoriy yoki sifat jihatidan ifodalovchi statistik ko'rsatkich;

ko'rsatkichning metama'lumot pasporti – ko'rsatkichning ta'rifi, hisoblash formulasi, o'lchov birligi, ma'lumot manbasi, mas'ul tashkilot, dezagregatsiya darajasi hamda shakllantirish va e'lon qilish davriyligini belgilovchi uslubiy hujjat;

ma'muriy ma'lumot egasi – qonunchilikda belgilangan vakolatlarni amalga oshirish jarayonida birlamchi ma'muriy ma'lumotlarni shakllantiruvchi davlat organi yoki tashkiloti;

rasmiy statistikani tayyorlovchi – rasmiy statistika sohasidagi qonunchilikka muvofiq statistika ma'lumotlarini shakllantirish, umumlashtirish va e'lon qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organi yoki tashkiloti;

dezagregatsiya – statistika ma'lumotlarini jins, yosh, hudud, nogironlik holati, yashash joyi va boshqa tegishli belgilar bo'yicha ajratib ko'rsatish.

2-bob. Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlari tizimining tarkibi va uni shakllantirish manbalari

3. Gender statistikasi hayotning barcha sohalarida ayollar va erkaklar maqomidagi farqlar va tengsizliklarni aks ettiradi. Gender statistikasini ishlab chiqish butun milliy statistika tizimiga taalluqli bo'lib, rasmiy statistikani birgalikda tayyorlaydigan va tarqatadigan statistika organlari hamda rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridan olingan ma'lumotlarni qamrab oladi.

4. Statistika organlari gender statistikasi ko'rsatkichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistika axborotini yig'ishni, unga ishlov berishni, uni to'plashni, saqlashni, tahlil qilishni va e'lon qilishni amalga oshiradi.

5. Gender statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish:

statistika organlari tomonidan amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlariga;
davlat organlarining ma'muriy ma'lumotlariga;

davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan muntazam ravishda amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlariga asoslanadi.

Gender statistikasi ko'rsatkichlari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining statistika ma'lumotlari asosida ham shakllantirilishi mumkin.

6. Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlari tizimi quyidagi asosiy uchta bo'limdan tarkib topgan.

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4235-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan Minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlar to'plami.

Ushbu bo'lim BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan minimal gender ko'rsatkichlari asosida shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlangan 54 ta ko'rsatkichdan iborat hamda quyidagi 5 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

-iqtisodiy tuzilmalar, ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish va resurslardan foydalanish huquqi;

-ta'lim;

-sog'liqni saqlash va unga aloqador xizmatlar;

-ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish;

-inson, xotin-qizlar huquqlari.

BMT Statistika komissiyasi tomonidan 2013-yilda ma'qullangan hamda keyinchalik Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlariga muvofiqlashtirilgan xalqaro Minimal gender ko'rsatkichlar to'plami jami 52 ta miqdoriy va 11 ta sifat ko'rsatkichini qamrab oladi; milliy to'plam ushbu xalqaro to'planning yuqoridagi besh yo'nalishi asosida shakllantirilgan.

b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021- yil 28- maydagi "2030- yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-son qarori (Oliy Majlis Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-sonli qarori tahririda) bilan tasdiqlangan 2030- yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari.

Mazkur strategiyaning maqsadli ko'rsatkichlari ro'yxati Oliy Majlis Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi KQ-346/1-V-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq, 58 ta maqsadli ko'rsatkich (indikator) etib belgilangan bo'lib, unda 2030-yilga qadar erishilishi nazarda tutilgan maqsadlar hamda ularga erishilishiga mas'ul bo'lgan ijrochilar ko'rsatilgan.

d) Boshqa asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari 130 ta gender statistikasiga oid ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, ular quyidagi 9 ta asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan:

demografiya;
sog'liqni saqlash;
ta'lim;
jinoyatchilik;
ijtimoiy himoya;
mehnat; turizm;
sport;
madaniyat.

3-bob. Milliy gender statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibi

7. Minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlar to'plami bo'limining ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son qaroriga 2-ilova (<https://lex.uz/docs/4230944>) bilan tasdiqlangan Minimal gender ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxati asosida mas'ul organlar (vazirliklar va idoralar) tomonidan shakllantiriladi.

Milliy statistika qo'mitasi ushbu ro'yxat asosida har yil yakuni bo'yicha mas'ul ijrochilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilib boradi.

8. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining SQ-297-IV-son qaroriga Oliy Majlisi Senati Kengashining KQ-346/1-V-sonli qarori bilan kiritilgan o'zgartirishlarga (<https://lex.uz/docs/5466673>) muvofiq, yangilangan maqsadli ko'rsatkichlar ro'yxati (58 ta) asosida ularga mas'ul bo'lgan rasmiy statistikani tayyorlovchilar va ma'muriy ma'lumot egalari tomonidan shakllantiriladi.

Milliy statistika qo'mitasi ushbu ro'yxat asosida mas'ul ijrochilar tomonidan yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilib boradi.

9. Boshqa asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari Milliy statistika qo'mitasi va boshqa idoralarning kuzatuv ma'lumotlari hamda vazirlik va idoralarning ma'muriy ma'lumotlari asosida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda tayyorlanadi. Har yil yakuni bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlar tahliliy jadvallar shaklida gender.stat.uz rasmiy saytida Statistika dasturida belgilangan muddatlarda e'lon qilib boriladi.

Gender statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish, taqdim etish, tekshirish va e'lon qilish davriyligi har bir ko'rsatkichning xususiyati, ma'lumot manbasi hamda statistik kuzatuv davri hisobga olingan holda uning metama'lumot pasportida va Statistika dasturida belgilanadi. Ko'rsatkichlar oylik, choraklik, yarim yillik, yillik yoki boshqa belgilangan davriylikda shakllantirilishi mumkin.

10. Boshqa asosiy gender statistikasi ko'rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi.

a) "Demografiya" bo'limi demografik jarayonlarni gender o'lchovida aks ettiradigan tug'ilish, o'lim, aholining tabiiy harakati, qayd etilgan nikohlar, nikohdan ajralishlar va aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Demografik ma'lumotlar mutlaq va nisbiy raqamlardan iborat tahliliy jadvallar shaklida aholining jinsi, yashash hududi, yosh guruhlari, shahar va qishloq joylari kesimida shakllantiriladi.

Demografik ma'lumotlar "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq hisoblanadi.

b) "Sog'liqni saqlash" bo'limida o'lim, kasallanish, umr ko'rish davomiyligi, ayrim tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi va boshqa sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Aholining kasallanishi va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda kasalliklar va ular bilan bog'liq bo'lgan salomatlikdagi muammolarning xalqaro statistik tasniflagichidan foydalaniladi.

"Sog'liqni saqlash" bo'limi ma'lumotlari "Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq tayyorlanadi.

Jumladan, 15-49 yoshli turmushga chiqqan hamda ittifoqda (nikohsiz) yashayotgan ayollar orasida kontratseptik vositalaridan foydalanish darajasi ko'rsatkichi kamida bitta kontratsepsiya usulidan foydalanadigan reproduktiv (15-49) yoshdagi ayollar sonini jami shu yoshdagi ayollarning o'rtacha yillik soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

Perinatal parvarishlash/xizmat ko'rsatish doirasi bu – ko'rib chiqilayotgan davrda tuqqan (tirik) hamda homiladorlik paytida malakali tibbiyot xodimlari tomonidan kamida bir marta tug'ruqqacha parvarishlash xizmati ko'rsatilgan 15-49 yoshdagi ayollarning ulushini ifodalaydi hamda ushbu ko'rsatkichlar metama'lumot pasportida alohida belgilanadi.

Xotin-qizlar va erkaklar kesimida ortiqcha vazn (semizlik)dan aziyat chekayotgan katta yoshlilar ulushi – kam vazn, ortiqcha vazn va semirishni o'lchash uchun xalqaro standart – Tana massasi indeksi (TMI) asosida aniqlanadi.

d) "Ta'lim" bo'limi – ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va ta'lim resurslaridan foydalanish darajasini aks ettiradi. "Ta'lim" bo'limi o'quvchilarning jinsi, ta'lim turlari, ta'lim darajasi va savodxonlik darajasi va ta'lim qamrovi bo'yicha tuzilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, mazkur bo'lim O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim turlari bo'yicha ma'lumotlardan tarkib topgan.

“Ta’lim” bo’limi ma’lumotlari “Ta’lim statistikasi bo’yicha uslubiy nizom”ga hamda “Ilm-fan (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) sohasida statistika ko’rsatkichlarini shakllantirish bo’yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

Jumladan, ta’lim tizimida gender pariteti indeksi – ta’limning boshlang’ich, o’rta va maktabdan keyingi (oliy) bosqichlarida qizlarning o’g’il bolalarga nisbatan qamrab olinish darajasini ko’rsatuvchi muhim statistika ko’rsatkichi bo’lib, qizlarning yalpi o’qishga kirish koeffitsiyentini mos keladigan o’g’il bolalarning yalpi o’qishga kirish koeffitsiyentiga bo’lish yo’li bilan hisoblanadi va bunda ta’lim qamrovi hamda gender pariteti indeksida bir xil ta’lim bosqichlari qo’llaniladi.

Mazkur indeks jinslar o’rtasidagi tenglik darajasini ko’rsatib, uning qiymati 1 ga teng bo’lganda to’liq gender tengligi mavjudligini, 1 dan kam bo’lgan ko’rsatkich o’g’il bolalar foydasiga tengsizlikni, ya’ni qizlar noqulay sharoitda ekanligini, 1 dan yuqori ball esa qizlar foydasiga tengsizlikni, ya’ni o’g’il bolalar noqulay sharoitda ekanligini bildiradi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda (UNESCO UIS) cheksiz indeks o’rniga 1 atrofida simmetrik talqin qilinadigan tuzatilgan paritet indeksidan foydalaniladi.

e) “Jinoyatchilik” bo’limida jinoyat sodir etgan shaxslar to’g’risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan bo’lib, jinoyat sodir etgan shaxslar soni, shu jumladan, jinoyatlarning turlari bo’yicha hududlar kesimida taqsimlangan ko’rsatkichlarni o’z ichiga oladi.

Mazkur bo’lim, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo’ravonlik holatlari, zo’ravonlik turlari bo’yicha jabrlangan shaxslar, berilgan himoya orderlari hamda jabrlanganlarga ko’rsatilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va reabilitatsiya xizmatlari to’g’risidagi ko’rsatkichlar bilan to’ldiriladi.

f) “Ijtimoiy himoya” bo’limi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari holatini gender o’lchovida aks ettiradi.

“Ijtimoiy himoya” bo’limi ma’lumotlari “Ijtimoiy himoya statistikasi ko’rsatkichlarini shakllantirish bo’yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

Ushbu bo’lim nogironligi bo’lgan shaxslar, pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni, ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalar to’g’risidagi ko’rsatkichlarni o’z ichiga oladi.

g) “Mehnat” bo’limi ayollar va erkaklarning mehnat bozoridagi o’rnini aks ettiradi hamda iqtisodiy faol aholi soni, bandlik, ishsizlik, mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishdagi jarohatlar bo’yicha ko’rsatkichlarni o’z ichiga oladi.

“Mehnat” bo’limi ma’lumotlari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 22- dekabrda 1011-son qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo’lmagan aholini hisoblash metodikasi”, O’zbekiston Respublikasi

Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 4- maydagi 13–sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”, shuningdek, “Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”, “Iqtisodiyot bo‘yicha ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom” va boshqa mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy hujjatlarga muvofiq hisoblanadi.

h) “Turizm” bo‘limida turistlar haqida jins bo‘yicha ma’lumotlar aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan turizm maqsadida chiqib ketgan fuqarolar to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

“Turizm” bo‘limi ma’lumotlari “Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

i) “Sport” bo‘limida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar soni va murabbiylar ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichlar mavjud.

j) “Madaniyat” bo‘limida madaniyat sohasi xodimlari to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar gender o‘lchovida mavjud.

“Madaniyat” bo‘limi ma’lumotlari “Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq tayyorlanadi.

Boshqa asosiy gender statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar mazkur uslubiy nizomning “Asosiy gender statistikasi ko‘rsatkichlari ro‘yxati va hisoblanishi” deb nomlangan ilovasida keltirilgan.

11. Har bir gender statistikasi ko‘rsatkichi bo‘yicha metama’lumot pasporti ishlab chiqiladi. Metama’lumot pasportida quyidagilar ko‘rsatiladi:

ko‘rsatkichning nomi va maqsadi;

qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar;

hisoblash formulasi; surat va maxraj tarkibi;

o‘lchov birligi; ma’lumot manbasi;

rasmiy statistikani tayyorlovchi va ma’muriy ma’lumot egasi; jins, yosh, hudud va boshqa belgilar bo‘yicha dezagregatsiya; shakllantirish va e‘lon qilish davriyligi;

ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish tartibi; ko‘rsatkichning xalqaro standartlarga muvofiqligi.

Ko‘rsatkichlarning metama’lumot pasportlari Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan gender.stat.uz rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi. Ko‘rsatkichlar yagona reyestrda hisobga olinib, har biriga unikal kod beriladi.

12. Yangi gender statistikasi ko'rsatkichlarini joriy etish milliy siyosat ehtiyojlari, strategik hujjatlar, Barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro statistika standartlari hamda foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlari asosida amalga oshiriladi.

Yangi ko'rsatkichni joriy etish to'g'risidagi asoslantirilgan taklif davlat organlari va tashkilotlari, ilmiy muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda boshqa manfaatdor subyektlar tomonidan Milliy statistika qo'mitasiga kiritilishi mumkin.

Taklifda ko'rsatkichni joriy etish zarurati, uning maqsadi, hisoblash usuli, ma'lumot manbalari, shakllantirish davriyligi va kutilayotgan natijalar ko'rsatiladi.

Milliy statistika qo'mitasi taklifni manfaatdor tashkilotlar ishtirokida uslubiy ekspertizadan o'tkazadi, ko'rsatkichning metama'lumot pasportini ishlab chiqadi va zaruratga ko'ra uni ko'rsatkichning xususiyati hamda ma'lumotlar davriyligidan kelib chiqadigan muddatda pilot tartibida sinovdan o'tkazadi. Pilot sinov natijalari ijobiy baholangan taqdirda, ko'rsatkich belgilangan tartibda gender statistikasi ko'rsatkichlari ro'yxatiga kiritiladi.

13. Milliy statistika qo'mitasi gender.stat.uz rasmiy veb-saytida:

gender statistikasi ko'rsatkichlarini jins, yosh, hudud, vaqt davri va boshqa tegishli kesimlarda joylashtirishni;

har bir ko'rsatkichning metama'lumot pasportini e'lon qilishni; ma'lumot manbasi, mas'ul tashkilot, yangilanish sanasi va davriyligini ko'rsatishni;

ma'lumotlarni jadval, grafik va diagramma shaklida ko'rish imkoniyatini;

ma'lumotlarni mashinada o'qiladigan ochiq formatlarda yuklab olish imkoniyatini; qayta ko'rib chiqilgan va tuzatilgan ma'lumotlar tarixini aks ettirishni ta'minlaydi.

Xalqaro taqqoslashlar faqat hisoblash metodologiyasi va ma'lumotlar qamrovi o'zaro qiyoslanadigan ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Milliy statistika qo'mitasi gender statistikasidan foydalanishni oshirish maqsadida ma'lumotlarni foydalanuvchilarga qulay tahliliy mahsulotlar, jumladan "O'zbekistonda ayollar va erkaklar" kabi mavzuli statistik to'plamlar shaklida e'lon qiladi hamda foydalanuvchilar va ma'lumot ishlab chiquvchilar o'rtasida muntazam muloqotni ta'minlaydi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

14. Yuridik shaxslar tomonidan statistika hisoboti shakllaridan, uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatishlaridan, boshqa vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda qayta ishlash natijasida gender bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar shakllantiriladi va tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi gender statistikasini yuritish uchun mas'ul bo'lgan boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda ko'rsatkichlarni jinslar kesimida ishlab chiqadi.

15. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

16. Milliy statistika qo‘mitasi gender statistikasi ma’lumotlarining to‘liqligi, ishonchliligi, dolzarbligi, o‘zaro muvofiqligi va qiyoslanuvchanligini ta’minlaydi. Ma’lumotlar sifatini ta’minlash maqsadida:

taqdim etilgan ma’lumotlar mantiqiy, arifmetik va statistik tekshiruvdan o‘tkaziladi;

turli manbalardan olingan bir xil yoki o‘zaro bog‘liq ma’lumotlar solishtiriladi;

tafovut yoki xatolar aniqlangan taqdirda, ma’lumot tegishli tashkilotga aniqlashtirish uchun yuboriladi;

ma’lumotlarga kiritilgan o‘zgartirish va tuzatishlar hisobi yuritiladi;

qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar e’lon qilinganda, ularning avvalgi ma’lumotlardan farqi va qayta ko‘rib chiqish sabablari ko‘rsatiladi.

Milliy statistika qo‘mitasi gender statistikasi ma’lumotlari sifati holati bo’yicha davriy baholash o‘tkazishi mumkin.

17. Gender statistikasini shakllantirish va e’lon qilishda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish hamda statistik maxfiylik talablariga rioya etiladi. Jismoniy shaxsni bevosita yoki bilvosita aniqlash imkonini beruvchi ma’lumotlarni e’lon qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kam sonli guruhlar bo’yicha ma’lumotlarni e’lon qilishda shaxsni identifikatsiya qilish xavfining oldini olish uchun ma’lumotlarni umumlashtirish, yashirish yoki boshqa statistik himoya usullari qo‘llaniladi.

Tazyiq va zo‘ravonlik, sog‘liq holati, nogironlik va boshqa ta’sirchan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va e’lon qilishda kuchaytirilgan maxfiylik choralari ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risidagi" Qonuni 11.08.2021- yil, O'RQ-707-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" Qonuni, 02.09.2019- yil, O'RQ-562-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021- yil 28- maydagi "2030- yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 26-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi KQ-346/1-V-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4235-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 22- dekabrda 1011-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisoblash metodikasi".
7. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Jahon banki instituti: «Разработка гендерной статистики: практическое пособие. Справочное руководство для обучения статистиков, подготовленное целевой группой ЕЭК ООН по гендерной статистике с участием различных экспертов», BMT, Jeneva, 2010- yil.
8. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Statistika bo'limi: «Обеспечение учета гендерных аспектов в статистике». BMT, Nyu-York, 2016- yil.
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ayollar holati bo'yicha to'rtinchi Butunjahon konferensiyasida tasdiqlangan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi, 1995- yil.
10. Kasalliklar va ular bilan bog'liq bo'lgan salomatlikdagi muammolarning xalqaro statistik tasniflagichi (XKT-10), 1989- yil.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 24- maydagi 10-son qaroriga ilova "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizam".
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- sentabrda 34-son qarori bilan tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizam".
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 30- aprelda 73-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy nizam".

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 30- noyabrdagi 83-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 30- apreldagi 76-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 17- oktabrdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 3- oktabrdagi 19-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyot bo‘yicha ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”.

18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 3- dekabrdagi 47-son qarori bilan tasdiqlangan “Turizm statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom”.

19. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 29- sentabrdagi 35-son qarori bilan tasdiqlangan “Madaniyat sohasida statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 31- martdagi 1-QQ-son va 5-QQ-son qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan “Fan (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari) sohasida statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori.

23. BMT Statistika komissiyasi. Minimal gender ko‘rsatkichlar to‘plami (Minimum Set of Gender Indicators), 2013-yil (Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlariga muvofiqlashtirilgan tahrir).

24. BMT Statistika bo‘limi va “BMT Ayollar” tashkiloti (EDGE). Gender nuqtai nazaridan mulkka egalik statistikasini ishlab chiqarish bo‘yicha tavsiyalar (Guidelines for Producing Statistics on Asset Ownership from a Gender Perspective).

25. Jahon banki. Turmush darajasini o‘lchash tadqiqoti — Plus (LSMS+) va Gender statistikasini mustahkamlash loyihasi: shaxs darajasidagi ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha tavsiyalar.